


TARIX O'QITISHDA BOSMA MATNLAR BILAN ISHLASH USULI



Andijon Davlat Pedagogika Instituti doktoranti

G'anijonova Dilafruz Noiljon qizi
ganiyonovadilafruz@gmail.com"

Andijon davlat pedagogika instituti

"Tarix" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Umaraliyev Boburjon Sobirjon o'g'li

Email:bumaraliyev000@gmail.com

Anotatsiya: Tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlar, darslik matni, tarixiy fakt va hodisalarining mohiyati, fanlararo yondashuv, Umumta'lim maktablari tajribasida darslikdagi bosma matnlar, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar tarix darslarida qo'llaniladigan matnlarga kiradi. Bosma matnlar o'qituvchi bayonining asosini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Bosma matnlar, tarixiy adabiyotlar, hujjatlar, xronologiya, darslik matni, tarixiy faktlar.

Tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga darslik matni, tarixiy hujjatlar, ilmiy - ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar kiradi. Bosma matnlar o'quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi o'qituvchining bilim manbaining asosini tashkil etadi. Matnlar ustida ishslash o'quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarining mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi. Maktab o'quvchilari har xil matnlar ustida ishlab mustaqil ish ko'rish masalasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki usullari bilan amaliy ravishda tanishadilar. Tarix o'qitishda darslik matni ustidagi ishlar o'quv o'zlashtirilishi va uni esda saqlab qolish, o'quv matnini tahlil qilish va undan tarixiy voqeа, hodisalarining muhim belgilarini bir-biriga taqqoslash, aniqlashtirish va umumlashtirish kabi turli xil maqsadlarda olib boriladi. Shuningdek, matn ustida ishslashda xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar tarifni o'zlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqeа va hodisalarining rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy asoslar va statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini bilib olish, mahalliy, vaqtli, sabab-natijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini o'zlashtirish va aniqlashtirish, lug'at ishlarini mazmunli va suratlari rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi uncha murakkab bo'limgan yozuv va grafik ishlarini olib borish, matn ustida dasturlashgan ta'lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko'zda tutiladi.

^{1.} Sadullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.T., 1996

Umumta‘lim maktablari tajribasida darslik matni ustida ishlashning bir qancha usullari mavjud:

1. Tushuntirib va izohlab o‘qish. O’qituvchi tarix o‘qitishda, ayniqsa V, VI, VII, VIII sinflarda o‘qitishning dastlabki oylarida butun mavzu yoki uning biror bo‘limini goh bayon qiladi, goh darslik matnini o‘qib, tushuntirib beradi. O‘quvchilar tarixiy materialni tushunib, matnini o‘qishda ma‘lum darajada malaka hosil qilganlaridan keyin matnning eng muhim qiyin joylarini izohlab o‘qishga o’tiladi.

2. Darslik matni mazmunini tahlil qilish va ular ustida o‘quvchilarning mulohazalarini uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Bu yo‘l bilan o‘quvchilar matnini e‘tibor bilan o‘qib, undagi bosh masalalarni ikkinchi darajadagi masalalardan ajratib olishga, ular asosida reja tuzishga o‘rganadi.

3. O‘quvchilar bob, paragraf va undosh joylarni bir-biridan ajrata bilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi yangi mavzuni bayon qilishdan oldin o‘quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhani o‘qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishdagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi.

4. Darslik matni mazmunini bevosita o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar. Bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matnini tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktorga baho berish, ular o‘rtasidagi sabab va boshqa alohalarni ochib ko‘rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir.

5. Darslik matni ustida ishslashning muhim omillaridan biri o‘quvchilarni uyda ishslash uchun beriladigan vazifani bajarishga o‘rgatishdir. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o‘rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, ko‘rsatkichlar to‘ldirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalaridir.

6. Tarix o‘qitishda o‘quvchilarni darslik matnidan zarur tez topa bilishga o‘rganish ham ta‘limning muhim elementidir.

Darslik matni o‘quvchilarning darsda va darsdan tashqari tarixni o‘rganish, o‘zlashtirish va uni esda saqlab qolishining, bilish faoliyatining, ijodiy izlanish ishlarini olib borishning muhim manbaidir. Matn va ulardagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini ijodiy o‘zlashtirishga va olingan bilimlarni hayotda qo‘llashga o‘rgatadi. Darslik matni ustidagi ishslash o‘quv materialini o‘zlashtirish va uni esda saqlab qolish, o‘quv matnini tahlil qilish va undan tarixiy voqeа, hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy dalillarni bir-biriga taqqoslash, umumlashtirish va natijaga erishish maqsadlarda olib boriladi. Bosma matnlar bilan ishslashda davriy xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar ta’rifini o‘zlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqeа va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy voqealar va statistik ma‘lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini bilib olish, tarixiy aloqalar qonuniyatlarini

o‘zlashtirish va aniqlashtirishni, mavzular yuzasidan rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida dasturlashgan ta’lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko‘zda tutiladi.

Xulosa. Tarixiy bosma matn hujjatlarida avvalo, o‘qituvchining bayonini aniqlashtirish, chuqurlashtirish va unga yanada aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi, tarix dasrliklar bayonini ishonchli va emotсional bo‘lishini ta‘minlaydi, o‘tmishning erkin obrazlarini, tarixiy voqealarning yahlit manzarasini gavdalantirishga, o‘rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi, hujjat ustida ishslash o‘quvchilarni faktlar va hodisalarни mustaqil ravishda aniqlashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o’rgatadi.

1. Sadullaev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda.T., 1996
2. Kristeva O., Axryanov A. Toshdagи bitiklar.T.,1987
3. Drachuk V. Yozuvlar o‘tmish sirlari shohidi.T., 1980
4. Mahkamov, M. M. M., & Qodirov, A. (2024). 4K MODELI ORQALI TARIX TALIMIDA ZAMONAVIY STRATEGIYALARNI QAMRAB OLISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 298-300.
5. Nizomiytdinovna, Y.S. va Ugli, KAA (2023). JADIDIZM VA RERESSIYA SIYOSATI. Fan va innovatsiyalar , 2 (C4), 128-133.